

Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida “Fitovirusologiya” ilmiy laboratoriyasi tashkil etiladi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minalash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minalash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, ushbu sohalarda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minalash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani ilg’or biotexnologiyalar asosida rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida qabul qilingan ushbu qarorga ko’ra:

Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining respublikada farmatsevtika biotexnologiyalari va vaktsina-zardob ishini rivojlantirish, mahalliy immunobiologik preparatlarni yaratishga yo’naltirilgan faoliyati qo’llab-quvvatlanib uning ushbu yo’nalishdagi asosiy vazifalari belgilanadi.

Shuningdek, mazkur qarorga muvofiq Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida “Fitovirusologiya” ilmiy laboratoriyasi tashkil etiladi.

Ushbu biotexnologik laboratoriyalarni moliyalashtirish manbalari etib Innovatsion rivojlanish va novatorlik g’oyalarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasi mablag’lari, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag’lar, xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor-mamlakatlarning kredit va grantlari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilandi.